



Hurmatli ota-ona/vasiy:

Siz va oilangiz yuzdan ortiq tilda gaplashiladigan turli millatli hamjamiyatimizning a'zosi ekanligingizdan xursandmiz. Prince William County davlat maktablari har bir talabaga *Jahon standartlardagi ta'limni berishga bel bog'lagan*. Ushbu jarayonda oila hamkorligi muhim bo'lganligi tufayli, biz har bir ota-ona va vasiyning farzand ta'limi haqida bilish va kirishishga yordam berish maqsadida ba'zi asosiy ma'lumotlarni taqdim qilamiz.

Barcha maktab materiallari ingliz tilida taqdim qilinadi; Biroq biz asosiy hujjat va ma'lumotlarni mintaqamizda boshqa eng ko'p talab qilinadigan tillarga davomiy ravishda tarjima qilib kelamiz . .

Ko'pgina tillardagi gaplashuvchilar muhim va yangilangan ma'lumotlarni ham Prince William County davlat maktablarining veb sayti – [pwcs.edu](http://pwcs.edu), ham individual maktab saytlaridan olishi mumkin. Ularning hammasi 50 dan ortiq cheklangan tarjima xizmatini taklif qiluvchi Google Translation vositasiga ega. Kompyuterlashgan tarjimalar odatda mukammal bo'lmaydi, biroq maktab ma'lumotlariga qimmatli havolalar taqdim qiladi. Agar sizning uyingizda kompyuterdan foydalanish imkoni cheklangan bo'lsa, siz istagan ommaviy kutubxonalardan foydalanishingiz mumkin.

Maktab bo'linmasi gapiruvchilarga yordam berish maqsadida professional tarjimonlarga kirish imkonini beradi, bundan maqsad ko'pgina tillardagi gapiruvchilar o'quvchilar va ota-onalar huquqlari, majburiyatlari, kutilayotgan narsalari va maktabga tegishli boshqa masalalari va talabalar olishi mumkin bo'lgan manfaatlariga oid muhim ma'lumotlarga ega hujjat tillarini tushinishdir. Tarjimonlar ota-onalar yig'ilishlarda ushbu masalalarni tushunganligi va o'z fikrini tushuntirganligini ta'minlash uchun ko'mak ko'rsatadi Ushbu xizmatlar oilalarga bepul ko'rsatiladi.

DR. STEVEN L. WALTS  
*Superintendent of Schools*

## Ushbu uslublardan kerakli ko'makni olish uchun foydalaning.

- Onlayn – translations.pwcs.edu saytiga o'ting.
- Shaxsan – farzandingiz maktabiga tashrif buyuring. Sizning tilingizda gapiruvchi bo'lishi amri mahol. Biroq ishchi sizga yordam berish uchun e'londan foydalanadi.

Hamma holatlarda sizdan quyidagilarni taqdim qilish so'raladi:

- Ismingiz va farzandingiz ismi;
- Farzandingiz maktabi, sinfi, darajasi va o'qituvchisining ismi;
- Gaplashmoqchi bo'lgan shaxs (ismi yoki mansabi) va suhbat mavzusi; va
- Telefon raqamingiz va gaplashish uchun eng qulay vaqt.

Agar farzandingiz uyga majlis bo'lishi haqida xabar olib kelsa; yoki o'qituvchi yo boshqa maktab rasmiysi bilan suhbat qilmoqchi bo'lsangiz, ushbu muhim suhbatlarda yordam berishi uchun tarjimon so'rang. Kimdir sizga tez orada javob beradi.

Sizning boxabar bo'lib turishingiz farzandingiz ta'lim-tarbiyasida ijobiy farq ko'rsatishi mumkin, biz esa ana shu xizmatlarni sizga yaratib berishga shaymiz. Umid qilamizki ushbu noma Prince William County davlat maktablari bilan farzandingiz va siz o'rtasida muloqot ko'prigi bo'ladi. Men shunga aminmanki, siz har bir talaba jahon standartlari talablaridagi ta'lim-tarbiya olish kerak degan xohishimiz bilan hamfikrsiz.

Hurmat va ehtirom ila,



Dr. Steven Walts  
Maktablar direktori

\*pwcs.edu saytiga tashrif buyurganingizda rangli yer shariini qidiring,  
bu narsa mazkur xabarda keltirilgan ma'lumotlarga ega bo'lgan sahifalarni aniqlash uchundir.

